e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/yhc5v128

HIND-YUNON PODSHOLIGI YUNON-BAQTRIYA DAVLATINING VORISI SIFATIDA: NUMIZMATIK, EPIGRAFIK VA TARIXSHUNOSLIK DALILLARI

Suyarov Mahmud Sobirjon o‘g‘li
Oriental universiteti, tayanch doktorant.
e-mail: suyarovmahmud2@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0002-2187-1051

Annotatsiya.
Mazkur maqolada Yunon-Baqtriya podsholigining parchalanishi natijasida Shimoliy Hindistonda shakllangan Hind-Yunon podsholigining o‘ziga xos vorislik xususiyatlari tadqiq etilgan. Antik yozma manbalar, so‘nggi numizmatik topilmalar, epigrafik dalillar hamda zamonaviy tarixshunoslik yondashuvlari asosida ikki davlat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib berilgan. Shuningdek, Menandr I davrida davlat chegaralarining kengayishi, tangalardagi Attika va hind vazn standartlari, ikki tilli yozuvlar hamda ellin-Sharq madaniy sintezi masalalari tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: Hind-Yunon podsholigi, Yunon-Baqtriya podsholigi, ellinizm, numizmatika, epigrafika, Tarn-Narain munozarasi, sulola, Menandr I.

ИНДО-ГРЕЧЕСКОЕ ЦАРСТВО КАК ПРЕЕМНИК ГРЕКО-БАКТРИЙСКОГО ГОСУДАРСТВА: НУМИЗМАТИЧЕСКИЕ, ЭПИГРАФИЧЕСКИЕ И ИСТОРИОГРАФИЧЕСКИЕ СВИДЕТЕЛЬСТВА

Суяров Махмуд Собиржон угли
Университет Oriental, докторант PhD.

Аннотация.
В данной статье исследуются особенности преемственности Индо-Греческого царства, сформировавшегося в Северной Индии в результате распада Греко-Бактрийского царства. На основе античных письменных источников, новейших нумизматических находок, эпиграфических свидетельств и современных историографических подходов раскрывается тесная взаимосвязь между двумя государствами. Кроме того, анализируются вопросы расширения государственных границ в период правления Менандра I, использования аттического и индийского весовых стандартов в монетной чеканке, двуязычных надписей, а также эллинистическо-восточного культурного синтеза.
Ключевые слова: Индо-Греческое царство, Греко-Бактрийское царство, эллинизм, нумизматика, эпиграфика, дискуссия Тарна — Нарайна, династия, Менандр I.

THE INDO-GREEK KINGDOM AS THE SUCCESSOR TO THE GRECO-BACTRIAN STATE: NUMISMATIC, EPIGRAPHIC, AND HISTORIOGRAPHICAL EVIDENCE

Suyarov Mahmud Sobirjon o‘g‘li
Oriental University, PhD Doctoral Student.

Abstract.
This article examines the distinctive features of the Indo-Greek Kingdom’s succession to the Greco-Bactrian Kingdom following the latter’s fragmentation and the emergence of the Indo-Greek state in Northern India. Drawing on ancient written sources, recent numismatic discoveries, epigraphic evidence, and modern historiographical approaches, the study reveals the close historical connections between the two states. Furthermore, it analyzes the expansion of territorial boundaries during the reign of Menander I, the use of Attic and Indian weight standards in coinage, bilingual inscriptions, and the Hellenistic-Eastern cultural synthesis.
Keywords: Indo-Greek Kingdom, Greco-Bactrian Kingdom, Hellenism, numismatics, epigraphy, Tarn–Narain debate, dynasty, Menander I.

Kirish. Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa yurishlari hamda ushbu hukmdor tomonidan ko‘plab shaharlarning barpo etilishi O‘rta Osiyoning Baqtriya, Sog‘diyona, Marg‘iyona kabi o‘troq sug‘orma dehqonchilik vohalarida ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Salavkiylar podsholigi zaiflashgan davrda, miloddan avvalgi III asr o‘rtalarida Diodot I boshchiligida mustaqillikka erishgan Yunon-Baqtriya podsholigi Sharq ellinizmining tayanchlaridan biriga aylandi. Ushbu davlat O‘rtayer dengizi bo‘yi aholisining ellin madaniyati, Eron zardushtiylik an’analari va dasht ko‘chmanchilarining o‘zaro ta’sirini ta’minlagan ko‘prik vazifasini bajardi. Qadimgi O‘rta Osiyo davlatchiligi tarixida Yunon-Baqtriya podsholigi yunon polis fuqarolik jamoa tuzilmalari bilan sharqona monarxiya boshqaruv usulining sintezini namoyon etdi. Mil. avv. II asrning birinchi yarmida Yunon-Baqtriya podsholigining Hindukush tog‘lari janubidagi Paropamisada, Araxosiya, Gandhara va Panjob hududlari tomon kengayishi natijasida Hindukushning janubida mustaqil Hind-Yunon podsholigi shakllandi. Ushbu ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy va sulolaviy aloqalarni o‘rganish yunon

davlatchiligining Amudaryo hamda Sirdaryo havzasidan Hind va Gang daryolari tomon ko‘chganini, bu ko‘chish qanday qilib ellin davlatchiligining Sharqda o‘ziga xos shaklda saqlanib qolishiga olib kelganini tushunish uchun zarurdir.

Mavzuning asosiy manbashunoslik muammosi antik yozma manbalar va numizmatik materiallar o‘rtasidagi nomutanosiblikda ko‘rinadi. Antik mualliflar qadimgi O‘rta Osiyo tarixiga oid faqat 8 nafar yunon hukmdorining nomini tilga olishgan. Vaholanki, so‘nggi yillarda topilgan numizmatik manbalar ushbu mintaqada 45 nafardan ortiq yunon podsholari va malikalari o‘z unvonlari va portretlari bilan tangalar zarb etganini ko‘rsatdi [13, p. 110]. Shu tufayli maqolaning asosiy ilmiy savoli quyidagicha shakllantirildi: Hind-Yunon davlatini Yunon-Baqtriya podsholigining vorisi sifatida baholash uchun qanday tarixiy dalillar mavjud va ular qanday chegaralarga ega? Tadqiqotning maqsadi numizmatik, epigrafik va arxeologik manbalar hamda zamonaviy tarixshunoslik tahlili asosida Hind-Yunon davlatining Yunon-Baqtriya podsholigi bilan siyosiy va madaniy davomiyligini aniqlash, ularning vorislik darajasini xolis baholashdan iboratdir. Yunon-Baqtriya davlatining siyosiy inqirozi, Yevtidemlar va Yevkratidlar sulolalari o‘rtasidagi urushlar hamda ko‘chmanchi yuechjilar bosqini natijasida yunon hokimiyatining Hindukushdan janubga siljish jarayoni tahlil qilinadi. Numizmatik va epigrafik manbalar asosida Hind-Yunon podsholigi tushunchasining kelib chiqishi masalasi ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotning xronologik chegarasi miloddan avvalgi III asr o‘rtalaridan, ya’ni taxminan mil. avv. 250-yilda Diodot I davrida Baqtriyaning Salavkiylardan ajralib chiqishi jarayonidan milodiy I asr boshlarigacha (taxminan milodiy 10-yilda Sharqiy Panjobda oxirgi Hind-Yunon hukmdorlaridan biri bo‘lgan Straton II hokimiyatining tugashi [13, pp. 96–97]) bo‘lgan davrni qamrab oladi. Geografik chegaralar esa Shimoliy va Janubiy Baqtriya, Sog‘diyona, Marg‘iyona hamda Hindukushdan janubdagi Paropamisada, Araxosiya, Gandhara, Panjob va Hind daryosi havzasini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotdagi bo‘shliq shundan iboratki, hukmdorlar o‘rtasidagi sulolaviy rishtalar va Hind-Yunon davlatining ichki ma’muriy bo‘linish darajasi, ya’ni birlashgan monarxiya yoki tarqoq podsholiklar ittifoqi ekanligi masalasi kelgusi arxeologik va epigrafik izlanishlarni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yozma manbalar qatorida antik yunon-rim mualliflari (Polibiy [2, 10.49.1–3], Strabon [3, 11.9.2], Yustin [1, 41.4.5–9]), Xitoy solnomasi Shiji [5, chapter 123] hamda hind-budda matnlari (Milindapanha [4, c. 12], Yuga Purana [10, p. 20]) alohida o‘rin tutadi. Epigrafik manbalarni Besnagardagi Geliodor ustuni yozuvi [6, pp. 118–120], Bajaur idish yozuvlari [18, pp. 1–8], Oyxonim saroy xazinasi matnlari [7, c. 157–158] va Amfipolis teri hujjati [14, pp. 506–509] tashkil etadi. Numizmatik manbalar qatoriga 3–4 tonna tanga hamda 120 kg oltin buyumlarni o‘z ichiga olgan Mir Zakah II [13, p. 110], Qunduz [12, pp. 79–81] va Chaman Huzuri [19, pp. 163–172] xazinalari, shuningdek, Peshovar muzeyi [17, p. 3], Britaniya muzeyi [16, pp. 6–9] va Parij Milliy kutubxonasi kataloglarini [16, pp. 6–7] kiritish mumkin. Tarixshunoslik bazasini T. S. Bayer (1738) [20, pp. 251–257], W. W. Tarn (1938–1951) [8] va A. K. Narain (1957) [6]ning klassik ishlaridan tortib, A. A. Popov (2008) [7] monografiyasi hamda O. Bopearachchi (1990) [12], O. Bordeaux (2024) [13], R. Mairs (2020) [9], J. Jakobsson (2009) [14], S. Glenn (2016) [16] va A. V. Bannikov (2013) [11] kabi tadqiqotchilarning ilmiy nashrlari tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi va manba bazasining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ishda bir-birini to‘ldiruvchi tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, numizmatik, xronologik va epigrafik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yunon-Baqtriya va Hind-Yunon podsholiklari tarixi, ularning siyosiy va madaniy o‘zaro aloqalari hamda ellinistik davlatchilikning Sharqqa yoyilishi antikshunoslik va numizmatika fanlarining muhim mavzularidan biridir. Antik davr yozma manbalarida, jumladan, Strabon, Yustin, Polibiy kabi mualliflarning asarlarida mintaqaga oid ma’lumotlarning tarqoq va yetarli emasligi sababli muammoning tarixshunosligi bevosita arxeologik, epigrafik va numizmatik kashfiyotlar bilan bog‘liq holda rivojlanmoqda.

Mavzuning dastlabki tarixshunosligida XX asr o‘rtalarida shakllangan Yunon-Baqtriya va Hind-Yunon davlatlari tarixi bo‘yicha Tarn va Narain kabi qarama-qarshi fikrda bo‘lgan ikki olimning konsepsiyalari mavjud edi. W. W. Tarn o‘zining “The Greeks in Bactria and India” nomli monografiyasida yevrotsentrik yondashuvga tayanib, Hind-Yunon podsholigini Salavkiylar podsholigining vorisi va O‘rta Osiyodagi “ellinistik podsholik” deb talqin qildi. A. K. Narain esa o‘zining “The Indo-Greeks” asarida Tarnning yevrotsentrik nazariyasiga qarshi chiqib, numizmatik tahlillar orqali Hind-Yunon podsholigi O‘rta Osiyo ellinizmining vakili emas, balki Janubiy Osiyoning mahalliy ijtimoiy-siyosiy jarayonlari mahsuli bo‘lganini ko‘rsatib berdi [21, pp. 76–78]. U Hind-Yunon davlatini yaxlit podsholik emas, balki 45 nafardan ortiq mahalliy, siyosiy jihatdan zaif yunon-hind podsholari hamda harbiy sarkardalar boshqargan, tarqoq va uzoq vaqt yashamagan davlat tuzilmasi deb baholaydi [6, pp. 46–47]. Tarn Demetriy I va Menandr I ning Hindiston ichkarisiga yurishlarini [3, 11.11.1] yirik ellinistik davlat barpo etishga qaratilgan, puxta rejalashtirilgan harakat deb baholadi. O. Bordeaux, J. Jakobsson kabi olimlar esa so‘nggi numizmatik va arxeologik topilmalar asosida Hind-Yunon davlatini aralash ellinistik voris davlat sifatida talqin qilishdi [13, pp. 113–118].

XX asr oxiri — XXI asr boshlarida chop etilgan tadqiqotlarda bir tomonlama, ya’ni faqat Tarn yoki Narain yondashuvlariga tayanishdan voz kechilib, arxeologiya, numizmatika va epigrafika dalillari birlashtirilmoqda [9, pp. 1–6]. Xususan, Rachel Mairs va ko‘plab mualliflar hamkorligida yozilgan “The Graeco-Bactrian and Indo-Greek World” nomli jamoaviy ensiklopedik to‘plamda Amudaryo va Hind daryolari havzasidagi ellinistik davlatlar tarixi qayta ko‘rib chiqildi. Mualliflar jamoasi Oyxonim, Taxtisangin va Barikot arxeologik qazishmalari ma’lumotlarini epigrafik manbalar bilan solishtirib, yunon aholisining mahalliy baqtriya va hind jamoalari bilan madaniy integratsiyalashuv darajasini ochib berdilar [9].

So‘nggi yillardagi zamonaviy kimyoviy ilmiy tajribalar mavzuga oid tasavvurlarni o‘zgartirdi. Chunonchi, fransuz olimi Osmund Bopearachchining Qunduz xazinasi katalogi tahlili orqali Hind-Yunon davlatining Lisiya, Antialkid, Arxebiy,

Aminta, Germey kabi podsholari tomonidan Attika standartidagi kumush tetradraxmalar zarb qilinganligi aniqlandi [12, pp. 79–93]. U P. Bernar bilan birgalikda ushbu Attika standartidagi pullar Hindukushdan shimolda yunonlar hukmronligi saqlanib qolganini anglatmaydi, balki ko‘chmanchi yuechjilar bilan xalqaro savdo qilish uchun Hindukushdan janubdagi zarbxonalarda maxsus chiqarilgan deb hisoblaydi [12, pp. 99–103].

“The Indo-Greek Gold Coinages. A New Heliocles II Specimen?” tadqiqoti muallifi Olivier Bordeaux Mir Zakah II xazinasi materiallariga tayanib, ilgari faqat Baqtriyadagi yunon podsholariga xos deb hisoblangan oltin tangalar zarbini Menandr I, Zoil I, Straton I, Zoil II kabi Hind-Yunon podsholari tomonidan ham davom ettirilganini tasdiqladi. O. Bordeaux ushbu oltin tangalar shohona legitimlikni tasdiqlash uchun chiqarilganini ta’kidlaydi [13, pp. 110–112]. Shuningdek, zamonaviy LA-ICP-MS (lazerli ablyatsiya, induktiv bog‘langan plazma mass-spektrometriyasi) kimyoviy-metallurgik tahlil usuli orqali Geliokl II ga tegishli deb taxmin qilingan yagona oltin tanganing zamonaviy soxtalashtirish natijasi ekanligi haqidagi xulosaga tayanildi [13, p. 115].

Simon Glennning “Graeco-Bactrian and Indo-Greek Coins: A Bibliography” ilmiy ishi numizmatik adabiyotlarning uslubiy ko‘rsatkichi bo‘lib, unda zarb texnikasi, metallurgik tarkib, ustiga qayta zarb qilish hamda soxta tangalar bo‘yicha mavjud barcha tadqiqotlar tizimlashtirilgan [16, pp. 8–11]. Peshovar muzeyi katalogida esa Aleksandrdan tortib Sofit, Geliokl I, Menandr I Soter, Zoil I, Poliksen, Arxebiy, Germey va Straton II gacha bo‘lgan hukmdorlarning tangalari o‘rin olgan bo‘lib, ularning aniq fizik o‘lchovlari, vazn standartlari va ikonografik tasvirlari berilgan [17, pp. 3–14].

Epigrafik tadqiqotlar doirasida J. Jakobsson “Who Founded the Indo-Greek Era of 186/5 B.C.E.?” tadqiqotida R. Salomon tomonidan e’lon qilingan Bajaur idishidagi xaroshti yozuviga tayanib, Hind-Yunon podsholigining kelib chiqishini tahlil qildi. Jakobsson mazkur podsholikning paydo bo‘lishi Demetriy I vafot etib, Baqtriyada ichki nizolar vujudga kelgan paytda Hindistondagi noib Apollodot I tomonidan mustaqil podsholikka asos solinishi bilan bog‘liqligini hamda uni butun Panjob va Gandharaga yoyishda Menandr I va Antimax II muhim rol o‘ynaganini asoslab berdi [14, pp. 505–509]. Epigrafik manba bo‘lgan Besnagardagi Geliodor ustuni yozuvi 1909-yilda topilgan. U Hind-Yunon davlatining siyosiy va diplomatik nufuzini tasdiqlaydi. Yozuvda qayd etilishicha, Taksila shahridan kelgan yunon elchisi Geliodor Taksila podshosi Antialkid nomidan Shunga davlati hukmdori Bhagabhadra saroyiga yuborilgan va u o‘zini Bhagavata (Vishna e’tiqodchisi) deb atab, Vishna ma’budi sharafiga tosh ustun o‘rnatgan [6, pp. 118–120].

Yunon-Baqtriya podsholigining siyosiy hayoti va uning Hindukushdan janubdagi hududlarga kengayishi Salavkiylar podsholigining sharqiy viloyatlar ustidan nazoratni yo‘qotishi bilan boshlangan. Diodot I va Diodot II davrida mustaqil yunon davlatchiligi poydevori qo‘yilgan bo‘lsa, Yevtidem I va uning o‘g‘li Demetriy I davrida davlat harbiy-siyosiy qudratining cho‘qqisiga erishdi. Salavkiy hukmdori Antiox III ning sharqiy yurishi va Yevtidem I bilan tuzilgan tinchlik shartnomasidan [2, кн. XI, 34] so‘ng, Yevtidemlar sulolasi o‘z harbiy yurishlarini Hindukush tog‘laridan janubi-sharqqa, ya’ni Paropamisada, Araxosiya, Gandhara va Panjob tomon yo‘naltirdi [6, pp. 21–24]. Narain antik yozma manbalardagi ma’lumotlarni boshqa moddiy manbalarga qiyoslash asosida quyidagi ikkita hukmdorni bir-biridan ajratish zarurligini ta’kidlagan. Yevtidem I ning o‘g‘li Demetriy I an’anaviy Attika vazn me’yorida hamda yunon yozuvli tangalar zarb ettirgan. Demetriy II Aniketos (Yengilmas) esa Hindukushdan janubdagi hukmronlik davrida kamaytirilgan hind vazn standartida hamda dastlabki ikki tilli (yunon va xaroshti) tangalarni muomalaga kiritgan [6, pp. 50–53].

Yunon-Baqtriyaning Hindukushdan shimoldagi yerlarida siyosiy tanazzul mil. avv. II asr o‘rtalarida boshlandi. A. A. Popovning “Греко-бактрийское царство” monografiyasida Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi, Diodotlar, Yevtidemlar va Yevkratidlar sulolalarining hokimiyat uchun kurashi, davlat boshqaruvi hamda harbiy tizimi batafsil tahlil qilingan. Popov antik mualliflar ma’lumotlarini Oyxonim arxeologik materiallari va numizmatik xazinalar bilan qiyoslab, Yunon-Baqtriya armiyasining makedoncha harbiy taktika va qurollar bilan ta’minlanganini keltirib o‘tgan [7]. Yevkratid I Baqtriyada hokimiyatni egallab, Yevtidemlar sulolasiga qarshi urush boshlagan [1, XLI, 6]. Yevkratid I Hindukushdan janubdagi Paropamisada va Kobul vodiysini qisqa muddatga egallab, o‘zining 20 staterli oltin medalini va Megas (Buyuk) unvonini e’lon qilgan edi [13, pp. 111–112]. Baqtriyadagi ichki beqarorlik dasht ko‘chmanchilari bo‘lgan yuechji va sak qabilalarining Sirdaryo va Amudaryo havzalariga bostirib kirishi uchun imkoniyat yaratdi [3, 11.8.2]. Xitoy solnomasi *Shiji*ga ko‘ra, yuechjilarning Baqtriyani bo‘ysundirganligi tasdiqlandi [5, chapter 123]. Chunki mazkur solnoma xitoylik tarixchi Chjan Syanning elchilik missiyasi ma’lumotlariga tayanib yozilgan qismlarga ega. Arxeologik va numizmatik dalillar Oyxonim yunon shahrining taxminan mil. avv. 145–140-yillar oralig‘ida saroy va ibodatxonalarining yoqib yuborilishi hamda shahar hayotining tugashi bilan buni tasdiqlaydi [7, c. 178–183]. Geliokl I (mil. avv. 145–130-yillar) Baqtriyadagi oxirgi yunon podshosi bo‘lib, u halok bo‘lgach, yunon davlatchiligi markazi uzil-kesil Hindukushdan janubdagi hududlarga ko‘chdi [6, pp. 104–106].

Hindukushdan shimoldagi yerlarda yunon hokimiyatining to‘liq tugashi borasida tarixshunoslikda jiddiy munozara mavjud. Bir tomondan, A. K. Narain va G. Fussman kabi olimlar Qunduz xazinasida Hind-Yunon hukmdorlarining Attika standartidagi kumush tetradraxmalari topilganiga tayanib, yunon podsholari kamida mil. avv. 70-yilgacha Badaxshon va Qunduz atroflarida o‘z hokimiyatini saqlab qolgan deb hisoblaydilar [6, pp. 102–107]. Ikkinchi tomondan, P. Bernar va O. Bopearachchi kabi tadqiqotchilar arxeologik manbalar va Oyxonim qazishmalari yunonlar mil. avv. 130-yillarga kelib Amudaryo vodiysidan surib chiqarilganini ko‘rsatishini ta’kidlaganlar [12, pp. 79–83].

Hind-Yunon hukmdorlari orasida Menandr I (hindchada Milinda) alohida o‘rin tutadi. U Yevtidemlar sulolasining malikasi Agatokleya bilan nikohlanish orqali o‘z hokimiyatining sulolaviy qonuniyligini ta’minlagan. Aynan ushbu malika Menandr vafotidan so‘ng davlatni regent sifatida boshqargan. Chunki Menandrning farzandi uning vafoti vaqtida hali yosh edi [6, pp. 75–112]. Menandr I davrida davlat chegaralari Kobul vodiysidan sharqda Ravi va Beas daryolarigacha, shimolda Svat vodiysidan janubda Araxosiyagacha kengaydi [9, pp. 386–415]. Budda matni Milindapanha (“Milinda savollari”) ma’lumotlariga ko‘ra, Menandr buddizmni qabul qilgan, o‘z tangalarida Pallas Afina hamda Dharmachakra buddistik ramzlarini tasvirlagan [4, c. 14–18]. Mil. avv. 130-yilda Menandr I vafot etgach, uning rafiqasi Agatokleya o‘z

tangalarida “Theotropou” (“Ilohiy qiyofali”) unvonini qo‘lladi va keyinchalik o‘g‘li Straton I bilan qo‘shma portretli tangalar zarb ettirdi [13, p. 112]. Biroq Menandrning o‘limidan so‘ng davlat birligi buzildi, hokimiyat bo‘linib, Zoil I, Lisiya, Antialkid hamda Diomed kabi raqib podsholar o‘rtasida ichki nizolar avj oldi [7, c. 97–98].

A. V. Bannikov va A. A. Popovlarning hammualliflikdagi “War Elephants in Greco-Bactrian and Indo-Greek Armies” asarida Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saqlanayotgan kumush buyumlardagi minorali jangovar fil tasviri tahlil qilingan. Minorada ellinistik dubulg‘ali yunon jangchisi hamda salla kiygan hind fil haydovchisi tasvirlangan bo‘lib, u Baqtriya va Hind-Yunon harbiy sintezini namoyon etgan. Mualliflar qadimgi Hindiston yozma manbalariga tayanib, yunonlarning hind harbiy taktikasini o‘zlashtirganini taxmin qiladilar [11, p. 1210]. Yunon-Baqtriya va Hind-Yunon armiyalarida fillar nafaqat zarba beruvchi harbiy kuch, balki shohona qudrat va g‘alabaning ramzi bo‘lgan.

XULOSA

Hind-Yunon davlatining Yunon-Baqtriya podsholari harbiy yurishlari natijasida shakllangani, davlat boshqaruvi mafkurasi, unvonlar tizimi, tovar-pul munosabatlari hamda harbiy tuzilma jihatidan o‘xshashliklari uning Yunon-Baqtriyaning bevosita davomi ekanligini ma’lum darajada tasdiqlaydi. Tadqiqot doirasida to‘plangan va tahlil qilingan numizmatik, epigrafik, arxeologik hamda manbashunoslikka oid manba va adabiyotlar asosida bir qator ilmiy xulosalarga kelindi. Jumladan, ellin davlatchiligi markazining Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi tarixiy viloyatlar bo‘lmish Baqtriya va Sog‘diyonadan Hind daryosiga yaqin Paropamisada, Gandhara va Panjob kabi hududlarga ko‘chishi ellinistik davlatchilik hamda boshqaruv tizimining Janubiy Osiyoga ham yoyilishiga sabab bo‘ldi. Tangalardagi shohona unvonlar hamda yunon ilohlari ikonografiyasi bevosita Yunon-Baqtriya an’analariga borib taqaladi. Hind-Yunon davlatida yunon va hind harbiy strategiyalarining uyg‘unligi kuzatilgan. Yozma manbalarning yetishmasligi sababli Hind-Yunon hukmdorlarining xronologiyasi asosan numizmatik ashyolarga tayanadi. Hind-Yunon davlatini Yunon-Baqtriyaning shunchaki davomi yoki ellinizmdan batamom uzilgan sof hind podsholigi deb ham bir tomonlama talqin qilib bo‘lmaydi. Manbalar asosida chiqarilgan xolis xulosaga ko‘ra, Hind-Yunon davlatini Yunon-Baqtriya ellinizmidan ajralib chiqqan, uning an’analarini saqlab qolgan, biroq Janubiy Osiyo muhitiga muvaffaqiyatli moslashgan voris davlat deb hisoblash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Iustinus. Trogi Pompei historiarum Philippicarum epitoma / recensuit Iustus Jeep. – Lipsiae: In aedibus B. G. Teubneri, 1859. – URL: Perseus Catalog (1859-yilgi nashr yozuvi). catalog.perseus.org
2. Полибий. Всеобщая история в сорока книгах. Т. II. Кн. VI–XXV / пер. с греч. Ф. Г. Мищенко. – СПб.: Наука, 2005. – URL: II jildning raqamli nusxasi. 2005
3. Strabo. The Geography of Strabo / translated, with notes, by H. C. Hamilton and W. Falconer. – In 3 vols. – London: Henry G. Bohn, 1854–1857. – URL: Granth Sanjeevani (1856-yilgi jild yozuvi). granthsanjeevani.com
4. Вопросы Милинды (Милиндапаньха) / пер. с пали, предисл., исслед. и коммент. А. В. Парибка. – М.: Наука, Главная редакция восточной литературы, 1989. – (Памятники письменности Востока. Вып. LXXXVIII). – URL: Google Books (nashr yozuvi). books.google.com
5. Sima Qian. Records of the Grand Historian: Han Dynasty II / translated by B. Watson. – Revised ed. – New York: Columbia University Press, 1993. – URL: The Chinese University of Hong Kong Press (II jild sahifasi). Records of the Grand Historian
6. Narain A. K. The Indo-Greeks. – Oxford: Clarendon Press, 1957. – 201 p. – URL: South Asia Commons (1957-yilgi nashr). southasiacommons.net
7. Попов А. А. Греко-Бактрийское царство. – СПб.: Издательство Санкт-Петербургского государственного университета, 2008. – URL: Kitobning elektron matni. А Попов
8. Tarn W. W. The Greeks in Bactria and India. – 3rd ed. / updated with a preface and new bibliography by F. L. Holt. – Chicago: Ares Publishers, 1985. – 561 p. – URL: Library of Turkistani (1985-yilgi nashr yozuvi). Library of Turkistani
9. The Graeco-Bactrian and Indo-Greek World / ed. by R. Mairs. – London; New York: Routledge, 2021. – URL: Routledge (nashriyot sahifasi). Rachel Mairs
10. Sircar D. C. The Account of the Yavanas in the Yuga-Purāṇa // Journal of the Royal Asiatic Society. – 1963. – P. 7–20. – URL: Cambridge Core. cambridge.org
11. Bannikov A. V., Popov A. A. War Elephants in Greco-Bactrian and Indo-Greek Armies // World Applied Sciences Journal. – 2013. – Vol. 27, No. 9. – P. 1206–1211. – URL: Jurnal soni va to‘liq matn havolasi. idosi.org
12. Bopearachchi O. Graeco-Bactrian Issues of Later Indo-Greek Kings in the Qunduz Hoard // The Numismatic Chronicle. – 1990. – Vol. 150. – P. 79–103. – URL: JSTOR. JSTOR
13. Bordeaux O. The Indo-Greek Gold Coinages. A New Heliocles II Specimen? // Transcending Boundaries: Premodern Cultural Transactions across Asia. Essays in Honour of Osmund Bopearachchi / ed. by S. Basu

ISSN 3060-5059 (Online)

Majumdar. – New Delhi: Primus Books, 2024. – P. 110–119. – URL: CiNii Books (to‘plamning katalog yozuvi). ci.nii.ac.jp
14. Jakobsson J. Who Founded the Indo-Greek Era of 186/5 B.C.E.? // The Classical Quarterly. – 2009. – Vol. 59, No. 2. – P. 505–510. – URL: Cambridge Core. cambridge.org
15. Bopearachchi O. Indo-Greek Dynasty // Encyclopaedia Iranica. – 2004. – Vol. XIII, Fasc. 1. – P. 96–97. – URL: Encyclopaedia Iranica (murojaat sanasi: 27.10.2026). Encyclopaedia Iranica
16. Glenn S. Graeco-Bactrian and Indo-Greek Coins: A Bibliography of the Numismatics of the Hellenistic Far East. – Zenodo, 2016. – URL: DOI 10.5281/zenodo.1346076. ora.ox.ac.uk
17. Frontier Archaeology. Vol. IV: Catalogue of Coins No. 2 (Indo-Greek and Scytho-Parthian Period) / ed. by I. Ali. – Peshawar: Directorate of Archaeology & Museums, Government of North-West Frontier Province, 2006. – P. 1–120. – URL: Journal of the Oriental Numismatic Society, No. 223 (katalogga berilgan bibliografik havola). orientalnumismaticsociety.org
18. Majumdar N. G. The Bajaur Casket of the Reign of Menander // Epigraphia Indica. – Vol. XXIV (1937–1938). – P. 1–8. – Delhi: Archaeological Survey of India, 1984 (reprint). – URL: XXIV jildning raqamli nusxasi. jainqq.org
19. Bivar A. D. H. The Chaman Huzuri Hoard: Counter-Marked Greek Flans as the Prototypes of the Indian Punch-Marked Coinage // The Numismatic Chronicle and Journal of the Royal Numismatic Society. – 1954. – Sixth Series, Vol. 14. – P. 163–172. – URL: JSTOR. JSTOR
20. Mairs R. The Reception of T. S. Bayer’s Historia Regni Graecorum Bactriani (1738) // Anabasis. Studia Classica et Orientalia. – 2013. – Vol. 4. – P. 251–258. – URL: Jurnal sahifasi. journals.ur.edu.pl
21. Holt F. L. Lost World of the Golden King: In Search of Ancient Afghanistan. – Berkeley; Los Angeles; London: University of California Press, 2012. – 368 p. – URL: University of California Press.